



**‘UZOQ MUDDAT DAVOLANISHGA MUHTOJ BO‘LGAN BOLALAR
UCHUN TA’LIM MUHITINI YARATISHDA OTA-ONALAR BILAN
HAMKORLI**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Muxammadiyeva Sevara Bahodirovna

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalari

Majidova Asila

Nabijonova Zilola

Annotatsiya: Ushbu maqola uzoq muddatli kasalliklarga duch kelgan bolalar uchun ta’lim muhitini yaratishda ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyatini muhokama qiladi. Maqoladabota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi samarali aloqa, bolaning ehtiyojlarini aniqlash, o‘quv jarayonini moslashtirish va bolaning ruhiy va ijtimoiy farovonligini qo‘llab-quvvatlash kabi muhim jihatlar k o‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Uzoq muddatli kasalliklar, ta’lim muhiti, ota-onalar bilan hamkorlik.

Kirish

Bugungi ma'ruzamizning mavzusi - uzoq muddatli kasalliklarga duch kelgan bolalaruchun ta'lim muhitini yaratishda ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati.Biz hammamiz bilamizki, uzoq muddatli kasalliklar bolaning hayotini tubdan o‘zgartirishimumkin. Davolanish jarayoni, shifoxonalarga borish, cheklangan jismoniy faoliyat va ijtimoiy hayotning pasayishi bolaning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini va o‘ziga bo‘lgan ishonchinipasaytirishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarni yengish va bolaning o‘qish jarayonini davom ettirishi uchun ota- onalar bilan hamkorlik muhimdir.Bugungi kunda O‘zbekistonda Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazida Makatabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasi faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu maktab uzoq muddat davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko‘rsatadi. Maktabda ta’lim muhitini yaratishda ota-onalarning ishtiroki va ular bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Chunki, uzoq muddat davolanishda bo‘lgan bolalar doimiy ravishda, asosan, ota-onalariyoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar hamrohligida bo‘ladi. Uzoq muddatli kasalliklar bolaning ta’lim jarayoniga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.



Davolanish jarayoni, shifoxonalarga borish, cheklangan jismoniy faoliyat va ijtimoiy hayotning pasayishi bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishini va o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytirishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarni yengish va bolaning o'qish jarayonini davom ettirishi uchun ota-onalar bilan hamkorlik muhimdir. Davolanayotganlar tibbiyot muassasalarida bo'lib turgan vaqtda davolovchi shifokor xulosasiga ko'ra ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (keyingi o'rinlarda — ota-onalar) roziligi bilan umumiy o'rta ta'limga jalb qilinadi.

Bunda, o'quvchilar davolanishga kelgan kundan boshlab uch kun mobaynida davolovchi

shifokorning umumiy o'rta ta'limga jalb etish bo'yicha xulosasi beriladi. Davolovchi shifokorning ijobiy xulosasi va ota-onalarning yozma roziligi Mehrli maktabga

taqdim etiladi. Davolanayotganlarni o'qitish muddati davolovchi shifokorlarning tibbiy ko'rsatmalariga muvofiq ota-onalar roziligi bilan belgilanadi.

Quyidagi usullar orqali ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish mumkin:

1. Ota-onalar va pedagog xodim hamkorligi. Tibbiyot muassasasiga davolanishga kelgan bolani Mehrli maktabga jalb qilish uchun ariza va individual ta'lim ehtiyojlari xaritasi

to'ldiriladi. Bunda:

a) Bolaning ismi, familiyasi, otasining ismi, tug'ilgan vaqti, yashash manzili;

b) ta'lim olayotgan maktabi, sinfi, ta'lim tili va sinf rahbari;

c) davolovchi shifokori va kasallik tashxisi;

d) qancha vaqt maktab borganligi va ta'lim shakli;

e) sog'ligi bo'yicha qo'yilgan cheklovlar;

f) qiziqishlari;

g) psixolog va logoped xizmatiga muhtojligi kabi ma'lumotlari o'rganiladi.

2. Ota-onalar va psixolog hamkorligi. Ilk marotaba onkologik va gemotologik kasllikka

chalingan bola va uning ota-onasi ruhiy tushkunlik va qo'rquv holatiga tushishi tez-tez

kuzatiladi. Bunday vaziyatdagi bola va uning ota-onasi ta'lim olishni rad etishadi. Bu holatda psixolog yordami kerak bo'ladi. Ota-onalar bolaning



kasalligi, davolanish jarayoni va o'quv ehtiyojlari haqida eng yaxshi ma'lumotga ega shaxslardir. Ular o'qituvchilar bilan bolaning o'quv jarayonini moslashtirish uchun birgalikda ishlashi mumkin. Ota-onalar bolaning o'quv jarayonini uning jismoniy va ruhiy holatiga moslashtirishda yordam beradi. Masalan, ular o'qituvchilar bilan bolaning o'quv

jadvalini o'zgartirish, o'quv materiallarini moslashtirish yoki qo'shimcha yordam berish haqida muhokama qilishlari mumkin. Ular bolaning ruhiy va ijtimoiy farovonligini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Farzandining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, o'qishga bo'lgan qiziqishini saqlab qolish va ijtimoiy hayotini davom ettirishga yordam beradi. Bolani ta'limga jalb qilishda ota-onaning qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida ta'lim olish huquqiga ega. Ularning jismoniy va ruhiy holatini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish muhim vazifalardan biridir. Bunda pedagog va ota-onalarning o'zaro hamkorligi asosiy o'rin tutadi. Ota-ona pedagog xodim va o'quvchi o'rtasida ko'prik vazifasini ham bajaradi. Ma'lumki, odatdagi davlat umumta'lim maktablarida o'quvchilar maktabga deyarli o'zlari borishadi, ya'ni doimiy ravishda ota-ona hamrohligida emas. Uzoq muddat davolanishda bo'lgan bolalar esa, deyarli, doimiy ravishda ota-onalar hamrohligida bo'ladi. Mehrli maktabga o'quvchilar aksariyat hollarda otasi yoki onasi bilan birga kelishadi. Hatto, darslarda ham birga ishtirok etishadi. Vazifalar va topshiriqlarni birgalikda bajarishadi. Bola uchun eng yaqin inson bu uning ota-onasidir. Shuning uchun bola ota-onasiga suyanadi, ishonadi va yutuqlarini birinchi navbatda ota-onasi bilan bo'lishadi. Ota-onaning bolaga bergan motivatsiyasi uning o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Maktabda tashkil etiladigan treninglar, ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlarda ham ota-onalar, o'quvchilar va pedagog xodimlar birgalikda ishtirok etadi. Maktab jamoasi ham ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'ladi.

Davolanish muddati tugab, tibbiyot muassasasidan chiqarilgan bolalar va ularning ota-onalari bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa bog'lab turishadi. Uzoq muddat davolanish tufayli odatiy maktab darslarida qatnasha olmaslik muammosi, o'quv jarayonidan uzilib qolishning bolalar psixologiyasiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'siri, inklyuziv ta'lim va individual ta'lim dasturlarini joriy etishning ahamiyati bunday bolalar uchun ta'limni tashkil etish zaruratini tug'diradi. Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish, masofaviy ta'lim



vaindividual darslarni tashkil etish, o'quvchilarni ruhiy qo'llabquvvatlash va motivatsiya berish hamda sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlik qilishda pedagoglar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishini, uy sharoitida ta'lim olish uchun qulay muhit yaratishni, pedagog va psixologlar bilan doimiy aloqada bo'lishni, o'quvchining ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlarini qo'llab-quvvatlashni ota-onalardan talab etiladi. Pedagog va ota-onalarning samarali hamkorligiga muntazam uchrashuvlar va maslahatlar tashkil etish, bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish va kerakli o'zgarishlarni kiritish, o'quv materiallarini o'quvchining salomatligiga moslashtirish hamda motivasion trening va tadbirlarni tashkil etish kiradi.

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun ta'limni samarali tashkil etish pedagog va ota-onalarning uzviy hamkorligi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda har ikkala tomonning tushunishi, sabr-toqati va izchil ishlashi bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pedagog va ota-onalar o'rtasida doimiy aloqa va o'zaro tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, uzoq muddatli kasalliklarga duch kelgan bolalar uchun ta'lim muhitini yaratishda ota-onalar bilan hamkorlik muhimdir. O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi samarali aloqa, bolaning ehtiyojlarini aniqlash, o'quv jarayonini moslashtirish va bolaning ruhiy va ijtimoiy farovonligini qo'llab-quvvatlash bolaning o'qish jarayonini muvaffaqiyatli davom ettirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-maydagi "Gematologiya, 13. onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda
14. bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini
15. joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 234-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-martdagi "Gematologiya, 16. onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda
17. bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish



chora-tadbirlari

18. to'g'risida"gi 134-sonli qarori

4. Avalos, L., Fernandez, M.B., Teachers of Hospital Pedagogy: A Systematic Review. Paidéia

19. (Ribeirão Preto), 2021, vol. 31, DOI: 10.1590/1982-4327e3139

5. Jiménez, N. N. V., Montes, J. E. O., & Alcocer, E. C. P. Hospital pedagogy: A space of love and

20. recognition for the oncological pediatric patient. Texto & Contexto - Enfermagem, 2019,

6. Грядунова Г.М. Психолого-педагогические особенности обучения больных

21. школьников, находящихся на лечении в многопрофильной больнице. - М.: ООО «МАКС

22. Пресс», 2003. - 104 с.